

ALISHER NAVOIY BOLA TARBIYASI XUSUSIDA

*Tog‘aymurodov Malik Tog‘aymurodovich,
Qarshi davlat universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: Avaznazarov Odiljon Rahmatulloyevich, PhD*

Annotatsiya

Buyuk o‘zbek allomasi Alisher Navoiy makorimu-l-axloq egasi bo‘lgan hamda olivjanob fazilatli, go‘zal xulq-atvor egasi bo‘lishlikni targ‘ib etgan. Ayniqsa, bola tarbiyasiga alohida diqqat qaratib, o‘z asarlarida bu boradagi tavsiyalari, ko‘zqarashini bayon qilgan. Ushbu maqolada ana shu masalaga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, bola, tarbiya, axloq, ustoz, ilm, odob.

Hazrat Navoiy siyemosida mujassam bo‘lgan e’tiborga molik jihatlardan biri – bu uning ilm ahllariga cheksiz hurmati, ustoz-murabbiylarga ko‘rsatgan ehtiromi va o‘z asarlarida ahli fozil va ahli hunarga bag‘ishlab aytgan iliq so‘zları bilan bir qatorda yosh bola tarbiyasiga oid qimmatli o‘gitlaridir. Shubhasiz, boshlang‘ich ta’lim – pedagogik jarayonning muhim va murakkab bo‘g‘ini. Bunda o‘qituvchidan katta bilim, mahorat bilan bir qatorda katta fidoyilik hamda sabr talab etiladi. Negaki, buyuk bobomiz o‘zining “Mahbubu-l-qulub” asaridagi “Dabiriston ahli zikrida” ya’ni “Maktab ahli to‘g‘risida” deb nomlangan faslda ta’kidlaganidek, “Insof bilan aytganda, har qanday irodali odamni ham birgina bola tarbiyasi charchatadi” [1;466].

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e’tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo‘lib o‘sishiga ishonadi. Albatta, bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o‘zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi. Inson ta’lim-tarbiyasi masalasida esa, albatta, ustoz-u murabbiylarning o‘rinlari beqiyos. Binobarin, Navoiy ta’biri bilan aytganda, agar shogird shayxulislomdek buyuk martabaga ko‘tarilganda ham ustozি undan rozi bo‘lsagina, Tangri ham rozi bo‘ladi:

Shogird agar shayx ulislom, agar qozidur, agar ustod andin rozidur – tengri rozidur [1;466].

Ota-onalar va ustozlar doimo yodda saqlashi lozim bo‘lgan, bola tarbiyasiga oid eng muhim jihatlardan biri – bolaning ko‘cha-ko‘yda qanday bola bilan yaqin munosabatda bo‘lishidir. Buning qanchalik ahamiyatli ekani ulug‘ allomaning yoshlarga qilgan mana bu murojaatida yaqqol anglashiladi: “Kimlar bilan bo‘lsang shulardeksan. Alar yomon bo‘lsa, sen ham yomon, alar yaxshi bo‘lsa – sen ham

yaxshisan. Demak, yaxshilar etagin tutgan yaxshiroqdir. Ko‘pgina qobiliyatli kishilar yaxshilardan ayrildi, yomonlar suhbati ularni nobud qildi...”

Navoiyni tanigan bola oq va qorani, yaxshi bilan yomonni farqlay oladi, bu o‘tkinchi dunyoda yaxshilik bilan nom chiqarish ajib bir saodat ekanini anglab yetadi:

*Bu gulshan ichraki yo ‘qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshiliq bila ot [2;707].*

Navoiy o‘z asarlarida o‘g‘il-qizlarni tarbiyalı bo‘lishga, ilm cho‘qqilarini egallashga, bu yo‘lda matonatli bo‘lishga da’vat qiladi. Zero, yoshlikda egallangan bilim kuni kelib, albatta, mevasini beradi. Shu o‘rinda “Zikri hukamo”dagi ushbu hikmatni keltirish o‘rinli:

“Buzurgmehr aytadi:

Ustozimdan so ‘radim: yigitlikda nima qilmoq va qarilikda nima qilmoq yaxshiroqdir? Dedi: Yigitlikda ilm o ‘rganmoq, qarilikda esa uni amalgaloshirmoq”.

Navoiy nafaqat ijodi, balki butun hayoti bilan ham barchaga ibrat bo‘la oladigan buyuk shaxs. Yoshlarga g‘amxo‘rlik, ularni hayotning keng va ravon yo‘llariga olib chiqish borasida qilgan ibratlari ishlari tafsinga sazovordir. U iste’dodli, ilmga tashna yoshlar tarbiyasiga jiddiy e’tibor bergan. Tarixchi Xondamir, buyuk rassom Kamoliddin Behzod, xattot Sulton Ali singari o‘z davrining yetuk shaxslari ham Navoiy homiyligida kamolat cho‘qqisiga erishdilar. Navoiy olimlar, shoirlar, tarixchilarni yirik va jiddiy asarlar yozishga da’vat etdi, ularga har jihatdan amaliy yordam ko‘rsatdi. Bobur Mirzo “Boburnoma”da yozadi: “Ahli fazlg‘a, ahli hunarg‘a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma’lum emaskim, hargiz paydo bo ‘lmish bo ‘lg‘ay”. Xondamirning yozishicha, Navoiy ilm toliblari faqat o‘qish bilan mashg‘ul bo‘lsin deb, ularga nafaqalar tayin etgan. Bu ilm toliblari orasidan katta olimlar yetishib chiqqan. Alisher Navoiy o‘zi qurdirgan binolardan biri “Unsiya” da juda boy kutubxonada yozishgan. Xondamir “Yaxshilar ahvoli to‘g‘risida xabarlar yig‘indisi” asarida, “Mir Alisherning fazlu hunar tabaqasining aksariga g‘amxo‘rligi zo ‘rdir. Tazhib (zarhallash) va tasvir, ilmu hunarda nuqson siz bo ‘lg‘on qalam ahllari, shuningdek, zamon naqqoshlari va davr muhandislarning ko‘pi u hazratning tarbiya va ta’lim vositasi bilan bu hunarlarni o‘rgandilar va atrof olamda monandi yo ‘q yaxshilar tengi bo ‘ldilar” deb yozadi. “Mahbubu-l-qulub” asarida Navoiy: “Yigitlik umr gulshanining bahoridir va hayot oqshomining tongidir. Asabu tomirlarga quvvat ham, qo ‘l-oyoq va a’zosi badanga quvvat ham andin”, deb yoshlarni jismonan baquvvat bo‘lishga chaqiradi [1]. Uning “Yoshlikda yig‘ ilmning mahzanin, qarilik chog‘i xarj qilg‘il ani” da’vati bevosita yoshlarga qaratilgandir.

O‘rni kelganda shuni ham ta’kidlash kerakki, Navoiy bola tarbiyasida quyidagicha pozitsiyaga ega:

“Qobilg‘a tarbiyat qilmamoq zulmdur va noqobilg‘a tarbiyat – hayf. Ani adami tarbiyat bila zoye’ qilma va munga tarbiyatingni zoye’ qilma (Ya’ni: Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik zulmkorlik va noqobil odamga tarbiya xayfdir. Unisiga tarbiyani ayab nobud qilma, bunisiga tarbiyangni zoye qilma).

Qit’a:

*Qobilg‘a tarbiyat erur ul nav’kim, guhar
Tushsa najosat ichra yug‘ay kimsa ani pok.
Gar it uzumig‘a kishi may birla bersa suv,
Bu tarbiyat bila qila olg‘aymu ani tok [1;530].*

Albatta, bu so‘zlar zamirida ta’lim beruvchi ustoz va murabbiylarni ogohlikka chaqirish, foydali yo‘l-yo‘riqlar berish maqsadi yotibdi, nazarimizda. Chunki ba’zida fanlardan sust o‘zlashtiruvchi yoki fe’l-atvori og‘ir bolalarga alohida e’tibor berganimiz holda, a’lo baholarga o‘qiydigan bolalarni biroz nazardan chetda qoldiramiz. Bu esa ularning ruhiyatida biroz salbiy ta’sir ham ko‘rsatadi. Aslida har bir bolaning qobiliyatini to‘g‘ri baholay olishimiz, shundan kelib chiqib uni ma’lum sohaga yo‘naltirmog‘imiz maqbul yo‘l ekan.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy ta’lim-tarbiya ishlarining naqadar nozik jarayon ekanini yaxshi anglagan holda, komil insonni tarbiyalash masalasini eng oliy maqsad sifatida chuqur talqin va tadbiq etgan. Shu sababli bo‘lsa kerak umumiyl o‘rta ta’limning 1-sinfdan 11-sinfgacha bo‘lgan barcha darsliklarida hayoti va ijodi o‘rganiladigan yagona alloma – Alisher Navoiydir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish kitoblarida buyuk mutafakkir haqida keltirilgan ma’lumotlar, hikoyalar, uning o‘z ijodiga mansub hikmatli so‘zlar, albatta, bola dunyoqarashini kengaytirishga, uni tabiat va insonlarga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shoir bir o‘rinda “Olimlar majlisida ilm nuridan ko‘nglimni yoritdim”, deydi. Xuddi shuningdek, bugungi kun o‘qituvchisi bolani shoirning “hikmatlar majlisi”ga olib kira olsa, Navoiyning nafaqat o‘z zamonasi, balki o‘zigacha bo‘lgan fan yutuqlaridan ham yaxshigina xabardor bo‘lgani, ilm ahli suhbatidan bahramand bo‘lishga intilganini anglata olsa, bola ko‘ngli yorishadi, uning ongida Alisher Navoiy ideali paydo bo‘ladi. Bunday bola esa, nazarimizda, faqat va faqat komillikka intiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik, 9-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 768 b.
2. Alisher Navoiy. Navodiru-sh-shabob. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik, 2-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 772 b.
3. Фиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т.: Akademnashr, 2018. – 372 б.
4. Авазназаров О.Р. Алишер Навоий достонларидағи йўл, йўловчи, сафар ва манзил талқинларида бадиий тушларнинг роли. “Alisher Navoiy” xalqaro jurnali. – 2022. – № 3. – Б.44–57.

5. Avaznazarov O.R. The role of the image of Saki in the Navoi's literary and historical mission. International Journal of Anglisticum. Literature, Linguistics and Interdisciplinary Studies. Volume: 9 / Issue: 3 / – Macedonia, 2020. – P.10–17.
6. Авазназаров О.Р. Image of wine in lyrics of Navoi. Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2019. – № 1. – Б. 163–170.
7. Avaznazarov O.R. The role of the image of Saki in the poem “Hayratu-l-abror”. Sheffield, 2019, p 70-74.
8. Авазназаров О.Р. “Фарҳод ва Ширин”да соқий образи. Алишер Навоий ва XXI аср: Тез. Халқ– Тошкент, 2020. 480-482 б.
9. Авазназаров О.Р. “Лайли ва Мажнун” достонида соқий образи. Тез. Халқ. Илм.амал.конф. 5-6 март 2020. – Бухоро, 2020. 208-210 б.
10. Авазназаров О.Р. “Садди Искандарий” достонида соқий образи. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги илмий журнали. – 2020. – № 2. – Б. 1–8.
11. Нуридинов Ш.Б. Авазназаров О.Р. Эпизоды сна в поэме Алишера Навои «Семь планет». Молодой ученый, 2015. – С.942-944.
12. Авазназаров О.Р. “Фавойиду-л-кибар”да соқий образидан фойдаланиш усуллари. Тез. Респ.илм.масоф.онлайн конф. 26-ноябрь 2020. 9-10-б.
13. Авазназаров О.Р. Соқий образи генезиси. – Урганч: Ilm sarchashmalari, 2019. – № 11. – Б. 71–75.
14. Avaznazarov O.R. Moddiy ashyodan – poetik obrazga. Til va adabiyot ta’limi. – 2019. – № 4. – Б. 39–40.
15. Авазназаров О.Р. Аҳмад Яссавий ҳикматларида соқий образининг ўрни. Тез. – Нур- Султан, 2019. 58-62.
16. Авазназаров О.Р. Яссавий ва Боқирғоний ҳикматларида соқий образининг талқинлари. ЎЗА илмий журнали. – 2019. – № 12. – Б. 11–20.
17. Авазназаров О.Р. Навоий ва Огаҳий лирикасида соқий тимсоли билан боғлиқ муштаракликлар. – Урганч, 2019. 154-158 б.
18. Avaznazarov O.R. “Farhod va Shirin”da yo‘lovchi obrazi va badiiy tush aloqadorligi. Респ.онлайн илм.амал.конф. 5-январь 2021. – Бухоро. 15–18-6.э
19. Avaznazarov O.R. Yo‘lovchi obrazi taqdirida badiiy tushning o‘rni (“Layli va Majnun” dostoni misolida). – Тошкент, 2021. 387-390 б.
20. Авазназаров О.Р. “Лисону-т-тайр”да бадиий туш ва сафар уйғунлиги. Респ.илм.-амал.анж. 20-май 2021. – Самарқанд. 153–157-б.
21. Avaznazarov O.R. Yo‘l obrazi tadqiqiga doir ba’zi mulohazalar. Tez. Resp. Ilm.konf. 20–21-may 2021. – Qarshi, 2021. 102-103-b.
22. Авазназаров О.Р. “Сабъаи сайёр” достонида бадиий туш ва сафар уйғунлиги. IV анъанавий халқ. конф. 3-4-ноябрь 2021. – Навоий шахри, 2021.
23. Авазназаров О.Р. Темурийлар даври адабиётида соқий тимсолининг ўрни. Мақ. Респ. Илм.-амал. Конф. – Тошкент, 2021 йил. – Б.199–206.